

RIVOJ O'TARBOYEV

JAYHUN JILVALARI

She'rlar



*TOSHKENT
«ADIB» NASHRIYOTI
2012*

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ӯ)7

O'14

Mas'ul muharrir:

Iqbol Mirzo

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan nashrga tavsiya etilib, "Ijod" fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

Kitob respublika ta'lif muassasalari kutubxonalariga bepul tarqatilinadi.

*Qoraqalpoq tilidan
Go'zal Matyoqubova tarjimasi
O'tarboyev, Rivoj.*

O'14 ***Jayhun jilvalari:*** she'rlar/R. O'tarboyev.

— T.: ADIB nashriyoti, 2012. — 64 b.

ISBN 978-9943-317-85-7

УДК: 821.512.133-1

ББК: 84 (5Ӯ)7

ISBN:978-9943-317-85-7

©«ADIB» nashriyoti,2012

© R. O'tarboyev, 2012

EZGU AN'ANA

Muhtaram Yurtboshimizning «Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» nomli risolasida «iste'dodlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chuqur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini bugun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda», degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani beziz emas.

Prezidentimiz "Adabiyot masalasi - ma'naviyat masalasıdır" deb ijodkorlar oldida turgan ulkan va mas'uliyatli vazifaga urg'u berarkan, millat kelajagi uchun qalam ahli ham javobgar ekanligiga e'tibor qaratadi:

"...agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiylar tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak".

Ana shu yuksak e'tibor samarasi o'laroq, bugungi kunda yosh iqtidor egalariga yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar har qanday ijodkorning havasini keltirishi tabiiy. Jumladan, «Do'rmon» ijod uyida ustoz-shogirdlik an'analarini davom ettirishga zamin yaratuvchi ijodiy uchrashuvlar, o'quv seminarlarini aytish mumkin. Ayniqsa, ezgu an'anaga aylanib ulgurgan «Birinchi kitobim» loyihasi doirasida chop etilayotgan mo'jaz asarlar adabiy hayotimizda ulkan hodisa sifatida e'tirof etilmoqda.

Qo'lingizdagи kitob ham minglab ijodkor yosh-larning ichidan saralab olingan, mashaqqatli va serzavq mehnatning hosilasi, umidli yosh ijodkorning dastlabki qadamidir.

MEN SENING ISHQINGDA KUYSAM NE BO‘PTI

Oldingda boshimni egayin dedim,
Shirin lablaringdan o‘payin dedim,
So‘ngra mayli kuysam kuyayin dedim,
Men sening ishqingda kuysam ne bo‘pti?

Qora qoshing aqlim olib shoshirsa,
Kipriging yurakka har dam nish ursa,
Ko‘zing oshkor etsa, so‘zing yashirsa,
Men sening ishqingda kuysam ne bo‘pti?

Ishqingni qadrdon bilganlar ham bor,
Ismingni tumordek ilganlar ham bor,
Dunyoga seni deb kelganlar ham bor,
Men sening ishqingda kuysam ne bo‘pti?

Sen kabi parini ko‘rmadim aslo,
Mendek oshiqni ham ko‘rmagan dunyo,
Majnunlar, Farhodlar, Tohirlar aro
Men sening ishqingda kuysam ne bo‘pti?



MUHABBAT

Yurakka tushgan yolqin,
O‘rtaydi neki borin.
Boshidan o‘tmaganlar
Tushunmas oshiq zorin.

Suv kabi yutib bo‘lmas,
Qo‘l bilan tutib bo‘lmas.
Muhabbat - totli sezgi,
Qimorda yutib bo‘lmas.

Yurakdan suyganim chin,
Ishqida kuyganim chin,
Yo‘qotib o‘z baxtimni
Armonlar tuyganim chin.



SOG‘INISH

Eski o‘rin, yiltirar chiroq,
Yulduzlarni terib olar tong.
Uziladi sarg‘aygan yaproq,
Kechalarda izg‘iydi bo‘ron.

Sodiq do‘stim - yolg‘iz yuragim,
Ixtiyor qo‘limdan ketgan.
O, samolar bering daragin,
Men kutgan yor nahot unutgan.

Qancha uzun kechalar kezdim,
Tutashtirmoq bo‘lib yo‘limni.
Kezdim, kezdim, nihoyat sezdim,
Gul kuydirib ketdi qo‘limni.





SHU BIR QIZ

Shovullaydi ovulning bog‘i,
Yuragimda shu qizning dog‘i.
Soy bo‘yiga jilva, noz bilan
Suv olmoqqa keladi chog‘i.

Jiringlaydi zarli tugmasi,
Bo‘lsa deyman uyim bekasi.
Oshiq bo‘lib qolar ko‘rganlar,
Soydek ko‘nglim shu qiz erkasi.

Kulib qarab, noz bilan boqib,
Yuragimda ishq o‘tin yoqib.
Yarashgan-ey zarli ko‘ylagi,
Ul qiz kelar suv kabi oqib.



YODIMDASAN

Unut bo‘lmas hech qachon bari,
Istasam ham unutib bo‘lmas.
Yoshligimning gulgun bahori
Xotiraga aylangan, o‘lmas.

Uchib ketding qush bo‘lib qayga,
Nahot, seni tutib bo‘lmaydi.
Hayot o‘zi shundayin poyga,
Oqar daryo kutib turmaydi.

Yurak sezар, derman haqiqat
Uchrasharmiz qachondir yana.
Qalbingda qulflangan muhabbat
Eshigini qoqarman yana.





OTA MAKON

Bobolardan qolgan makon,
Avlodlarga meros bo‘lib.
Bugun seni tanir jahon,
Mustaqillik yo‘ldosh bo‘lib.

Ota makon, ona yurtim,
Ko‘p asrlik tarixing bor.
Bosib o‘tgan bobolarim,
Qancha-qancha yo‘llarni tor.

Orzu bo‘lgan erkinlikka,
Hatto qurbon etgan jonin.
Bugun xalqim gullatmoqda,
Ota makon – Turkistonin.

Bobolarga sodiq avlod
Senda yashar, ota makon.
Mustaqillik berib savlat,
Gullayvergin ona Vatan.

ONA VATAN

Ko‘ngil xushim, nomus-orim,
Gar so‘zlasam tilda borim.
Maqtansam-da shuncha ozdir,
Suyanchig‘im – ona Vatan.

Elda qancha shoir o‘tgan,
Shoirlikka doir o‘tgan,
Shoirni chin shoir etgan
Mangulik so‘z – ona Vatan.

Donolarga makon bo‘lgan,
Kelajakka imkon bo‘lgan,
Mehri qalbida kon bo‘lgan,
Keng quchoqli – ona Vatan.

Kuy-doston, Jiri* bilan,
Tog‘-u toshi, qiri bilan,
Mangu quyosh nuri bilan,
Barchaga teng – ona Vatan.

*Jiri - (*Jirov*) *Qoraqalpoq xalqining xalq qo ‘shiqlari*



YIGIRMA BESH YOSH

Yurakni o‘rtaydi qizlarning nozi,
Suluv tabiatning bahori, yozi,
Muhabbat kuyini chaladi sozi,
Yigitning quvvati yigirma besh yosh.

Olovdek oy yuzi ko‘z qamashtirgan,
Visol chorborg‘ida ko‘p uchrashtirgan,
So‘ngra yuraklarni yaqinlashtirgan,
Muhabbat elchisi – yigirma besh yosh.



TILAK

Niyatim xolisdir, manzilim olis,
Umr so‘qmog‘ida men bir yo‘lovchi.
Umrim anduhlardan qiladi xalos,
G‘am-shodlikda ko‘zdan tomgan juft tomchi.

Men qayda bo‘lmayin ko‘nglim, qarorim,
Qurolim so‘z bo‘lgay, qalqonim – nomus.
O, meni yaratgan parvardigorum,
So‘zning qudratidan qilmagin olis.

Xayol dengizida suzayin mangu,
Chin so‘zning tuganmas marjonin terib.
Yolqinli so‘z aytib qarzim uzay-da,
So‘ng yuray el ichra qaddimni kerib.





OPPOQ QOR

Oppoq qor yog‘ar-u, yer yuzin yopar,
Eldan ketgandayin bo‘lar xavf-xatar.
Oppoq qor, oq libos, zaminga qabo,
Go‘yo borlig‘ini shu yerga atar.

Oppoq qor yog‘adi misli oq oltin,
Tinchlik jarchisi u, oq kaptar balkim.
Hur jangchi sanalar, buning haqida
Yurakdan kuylasa turlicha har kim.

Oppoq qor – oshiqib kutilgan diydor,
Oshiq yor vasliga bo‘lgandek xumor.
Toza ko‘ngillarga tegmasin deb ko‘z,
Daraxtlar shoxiga osishar tumor.

Mehribon onadek, dili navrasta,
Yashirmas, mehrini tez oshkor etar.
Oppoq nazarini burgancha asta,
Xasta Oroliga jon nisor etar.

YAXSHILIKDAN YARALGAN DUNYO

Orzu-umid, qanot umr yo‘lida,
Qanday yashamoqlik inson qo‘lida,
Razolat yurmagay o‘ng-u so‘lida,
Yaxshilikdan yaralgan dunyo.

Yaxshilik bor, yaxshi inson yaratgan,
Olamga yaxshilik nurin taratgan,
Yaxshi yuzin yaxshilarga qaratgan,
Yaxshilikdan yaralgan dunyo.

Yoz kelgach, o‘rnini bo‘shatar bahor,
Savob nurin quyar boshidan sahar.
Foyda keltirmagay gina, kek, qahr,
Yaxshilikdan yaralgan dunyo.

Onalar qaytargan xonni qahrdan,
Toshlar ham ingraydi zolim nahrdan,
Qarang-chi, atrofga turib sahardan,
Yaxshilikdan yaralgan dunyo.



DOG'LAR KETMADI

Yillar o'tdi, gullar so'ldi, qushlar ketdi,
Shukr-ki, shul azim tog'lar ketmadi.
Boshimdan ketdi-ku aql-hushlarim,
Tog'day yuragimdan dog'lar ketmadi.

"Dunyo yolg'on" deya o'zimga aytdim,
Bilib-bilmay azoblarim ko'paytdim,
Birov emas, o'zni o'zim yupatdim,
Ne qilay, yurakdan dog'lar ketmadi.

Bog'larimdan bahor ketdi, kuz ketdi,
Qo'lin siltab, yuzin burib do'st ketdi,
Yolg'izlikda aytilmagan so'z ketdi,
Ne qilay, yurakdan dog'lar ketmadi.

Yuragimning dardli zori nayda yo'q,
To'lg'on, yurak dog'i to'lin oyda yo'q,
Endi seni sog'ingandan foyda yo'q,
Ne qilay, yurakdan dog'lar ketmadi.

ELIMDA YIGITDAY YURGIM KELADI

Madhingni kuylagim keladi har dam,
Chetlab o‘tgim kelmas hatto qoyangni.
Dunyoni kezsam-da poy-u piyoda,
So‘zlarga ko‘mgayman butoq, poyangni.

Umr o‘tib borar, har bir qadamda,
Kimlar qolar yolg‘iz bo‘lib olamda.
Yaxshi bilan yo‘ldosh bo‘lib har damda,
Yaxshi do‘stga hamdam bo‘lgim keladi.

Hayot, umr turmushning mash'alasi,
Unga ko‘nib yashar inson bolasi.
Dutorning toridan chiqqan nolasi,
Shu sozga so‘z bo‘lib qo‘ngim keladi.

Gar so‘z desang so‘ngin o‘ylamoq kerak,
Shoshqin soyning oldin boylamoq kerak,
Elni xalq bo‘larin o‘ylamoq kerak,
Elimda yigitday yurgim keladi.



QORAQALPOQDA

Qalbi misli daryo, ko‘ngli keng osmon,
Shoirlar tilida aytilgan doston.
Hunarga, bilimga berilgan imkon,
Qo‘llari gul qizlar qoraqalpoqda.

She'r yozadi terib so‘zlar marjonin,
Maydonda qizdirar mehnat javlonin,
Turfa oltinlardan baxtning xirmonin,
Mo‘l-mo‘l uygan qizlar qoraqalpoqda.

Qaysi birin maqtab, kimni aytaman,
Neni aytsam hamki chinni aytaman,
Xuddi parvoz qilgan qushday qaytaman,
Menday hurli qizlar qoraqalpoqda.

Biri To‘maris-u, biri Guloyim,
Fe'llari ipakday, so‘zi muloyim.
Baxtimizga omon bo‘lsin, iloyim,
Ko‘ngli obod qizlar qoraqalpoqda.

KO‘NGLIM

Haqiqat ustidan kulganim yolg‘on,
Kimningdir bag‘rini tilganim yolg‘on,
Mening bu dunyoda kelganim yolg‘on,
Vayrona ko‘nglim-a, vayrona ko‘nglim.

Loyim Odam Ato, Momo Havodan,
Men ham kecholmadim ba'zan xatodan.
Gohi bilib-bilmay qilgan xatodan,
Hayrona ko‘nglim-a, hayrona ko‘nglim.

Tunlar tushga kirar qalamqosh qizlar,
Qalbimda mehrning elchisi kezar.
Tanda uch yuz oltmish tomirim izlar,
Mastona ko‘nglim-a, mastona ko‘nglim.

Azaldan bu ishqning ko‘pdir so‘rog‘i,
Sodiqlik umrning so‘nmas chirog‘i,
Mavj urib turarkan mehr bulog‘i,
Parvona ko‘nglim-a, parvona ko‘nglim.



ONALAR

Asli siz dunyoning boqiy tirkagi,
Siz kelsangiz kelar baxtning daragi.
Yurt tinchligi bo'lgan har dam tilagi,
Pok niyatli inson sizlar – onalar.

Siz-la mujassamdir olam chiroyi,
Sizlar gulizebo, dilbar, kiroyi,
Zaminning quyoshi, ham samo oyi,
Nurlari tunganmas sizlar – onalar.

Mehr nuri tomgan yuzlaringiz bor,
Ming pand-u nasihat so'zlaringiz bor,
Mudom o'rnak olsak arziydi deyman,
Jannatga yo'l ochgan izlaringiz bor.



SHUKRONA

O‘tdi o‘ynoqlagan suv kabi yoshlik,
Do‘stimga ginam yo‘q, dushmanga qasdlik.
Umr yo‘li qumloq, gohida toshlik,
Qoqilib, yiqilib turib yurganman.

Vaqt kelibdi, endi so‘zlasam ahdni,
Baxtliman kuylolsam eng buyuk baxtni,
Qalbimga yo‘latmay, gina, kek, qasdni
Mudom daryo kabi toshib yurganman.

Yaratgandan tilab olivy tilakni,
Mehr suvlariga chayib yurakni,
Ajratib yomondan dilga kerakni,
Qalam-la so‘zlardan marjon terganman.





MENING KONSTITUTSIYAM

Erkinlikni suygan xalqim,
Mustaqillik mening baxtim.
Odil yurtda nurli vaqtim –
Mening konstitutsiyam.

Shaxdam qadam tashlab borar,
Oydin yo‘lga boshlab borar,
Quyoshli el O‘zbekiston
Borgan sayin yashnab borar.

Odillikning yo‘lboshchisi,
Baxtli umrning jarchisi –
Mening konstitutsiyam,
Mening konstitutsiyam.



YO‘QCHILIK

Kunda ming bitta tashvish,
Topib yurgan yo‘qchilik.
Ajal yetmay yoqamdan
Bo‘g‘ib turgan yo‘qchilik.

Sirpanchiq, tor yo‘lkada
Quvib yurgan yo‘qchilik.
Bir ko‘ylakni yuz bora
Yuvib bergen yo‘qchilik.

Do‘stlar bilan orani
Olis qilgan yo‘qchilik.
Nokas tirnar yarani
Bemor qilgan yo‘qchilik.





KO'NGIL TOVLANISHLARI

Bu olamning ko'rki bo'lsa-da inson,
Dunyoga hech biri ustun bo'lman.
Faqat yaxshi so'z-u, mardlarning ishi
O'chmas, manguliklar bo'lib o'rnagan.

Bu dunyo - besh kunlik atalmish hayot
Insonga tabiat in'om etgan nur.
Yashamoqlik uchun kuylangan bayot,
Armonsiz ko'ngilga qadalgan bir dur.

Orzu-umid bilan yashagan inson,
Umr bozorida dilgir xaridor.
Izlaganin topgay, qilmagay armon,
Gar unda sabr va qanoat bisyor.

Kimlar ketar sabr-matonat bilan,
Umr yo'llarida tortib karvonin.
Yana kimlar ketar mol-davlat izlab,
Ma'yus ko'zlariga joylab armonin.

EL DEB URAR YURAGING BO‘LSIN

Ey, inson bolasi, o‘ylanib ish tut,
Mehnatda chiniqqan bilaging bo‘lsin.
Hamisha qalbingda yashagan el-yurt,
Madadkoring hamda tiringating bo‘lsin!

Yalqovlik yarashmas hech mahal senga,
Xoliq baho berar ishingga qarab.
Aytgan so‘zing, yana qilgan ishlaring
Uzoq qolsin elning koriga yarab.

Hayot deya ursin har chog‘ yuraging,
Har joyda aziz bo‘l, his qil keraging.
Xalqingni e'zozlar xizmating bo‘lsin,
Farzandsan, yurt bo‘lsin buyuk tilaging.

Yurak uchqun sochar, bir o‘tli yolqin,
Shoir aytar xalqqa qalbida borin.
Agar bilmak bo‘lsang xalqingning holin,
El deb urib turgan yuraging bo‘lsin.



YOSHLARGA TILAK

Yoshlarga aytar tilagim:
Kuchli bo‘lsin bilaging.
Elingning mard o‘g‘loni bo‘l,
Vatan deya ursin yuraging.

Hunar o‘rgan bola yoshdan,
Hatto gullar unar toshdan.
Sirdosh bo‘lgin kitob bilan,
Yozarsan bir kuni doston.

Niyating bo‘lgay yaxshilik,
O‘ylama hech yomon qiliq.
Xalqingning koriga yara,
Faqat ezgu ishlar qilib.

O‘kinma hech o‘tgan ishga,
O‘xshab qolsin u bir tushga.
Shaxd aylagin endi do‘stim
Bayrog‘ingni ko‘tarishga.

SHOIR DO‘STIMGA

Do‘stim, chin shoir bo‘lsang,
Go‘zallikdan dil yarat.
Aytgan har bir so‘zingda,
Gulning atrini tarat.

Qorli kunda qalbingda
Lolaqizg‘aldoq unsin.
Po‘stin bo‘lsin egningda,
Sozing qo‘lingda bo‘lsin.

Xayolingda tun-u kun
Nozli dilbar visoli.
Qalbingda gullab yotsin
Muhabbatning timsoli.





SHAMOLLAR

O, shamollar, erka shamollar,
Sizga aytar arzlarim bisyor.
Yetkazinglar mehribonimga,
Bo‘ynimda bir og‘ir qarzim bor.
Xatga sig‘mas, ko‘ngil xonamga.

O, shamollar, erka shamollar,
Ayting, aziz onamga borib.
Shoir bo‘lar sizning bolangiz
So‘z izlaydi tunlar o‘rtanib.
Qabul bo‘lar qilgan nolangiz.

O, shamollar, erka shamollar,
Ayting, gina qilmasisin akam.
Ko‘pdan beri xabar olmadim
Qaltis xato qilmadimmikan.
Chin yoroni bo‘la olmadim.

O, shamollar, erka shamollar,
Men sizlarni quchib qolaman.
Qo‘lga olib qog‘oz-qalamni,
Maysalardan ilhom olaman.
So‘zga solib bu keng olamni.

O, shamollar, erka shamollar,
Bolaligim o‘tgan yo‘llarga.
Balki yilda bir bor borarman,
Nazar tashlab o‘tgan yillarga.
Nelarnidir so‘zlab qolarman,

O, shamollar, erka shamollar!

O‘YLARGA TOLDIM

Tabiat uyg‘ongan erta bahorda,
Oq tollar shoxlarin yoygan mahalda,
Kirib tushlarimga, turib saharda,
Men seni sog‘inib o‘ylarga toldim.

Bahor yomg‘irlari yuvsa yuzimni,
Vaqt tulpor misoli quvsqa izimni,
O‘zingdan o‘rganib sabr-to‘zimni,
Men seni sog‘inib o‘ylarga toldim.



XALQIM

Xalqim, farzandingman, aytar so‘zim bor,
Qalbimda qanoat, sabr, to‘zim bor.

Baxting, iqbolingni ko‘rar ko‘zim bor,
So‘zlasam bir sening nomingni deyman.

Noming ta'riflasam so‘zlar yetmagan,
El yo‘qdur jahonda noming kezmagan,
Erkin el bo‘lgansan oyni ko‘zlagan,
Bizda bobolarning qoni bor deyman.

Dunyo kezib bosib o‘tding ko‘p o‘tov,
Ko‘chgan xalqqa pana bo‘ldi oq o‘tov.
Shoir Zevar kuylab o‘tgan "Bo‘zatov"
Sabrli xalqimning zori-ku deyman.

El-yurtin birlikka boshlar donolar,
O‘g‘lini mardlikka chorlar onalar,
Yovlardan berkinib qurgan qal'alar,
Kelar qonli janglar ovozi deyman.

Qayta yangrayapti tarix sadosi,
Berildi-ku yolg‘on so‘zning jazosi.
Maman, Oydo‘st, Ernazarning hayosi,
Mard xalqimning nomus ori-ku deyman.

NAVRO‘Z

Go‘zallik beribsan keng ona yerga,
Quvonch ato etib har bir ko‘ngilga.
To‘yning boshi bo‘lib kelgan elimga
Assalom, yilboshi Navro‘z, Assalom.

Shoirlarning ko‘ngil qushin sayratib,
Dalalarni suluv qilib yashnatib,
Ot bo‘laman degan toyni kishnatib,
Elimga xush kelding Navro‘z, Assalom.

Ko‘ngillar toshadi bugun quvonchdan
Ona xalqim qutlar bahor to‘yini.
Chopog‘on tulporlar olib ketadi,
Elimning xush niyat orzu-o‘yini.

Barcha bayramlardan o‘zing shukuhli
Qadim an'anadan kelgan xush kalom.
Sendandir erkinlik tongin shu'lasi,
Yurtimga xush kelding Navro‘z, Assalom.



SHE'RIYAT, SENSIZ QANDAY YASHAYMAN

Kezib sahrolarni,adir,qirlarni,
Suzib yer tanlamas daryo ko'llarni,
Ko‘z yummay o‘tkazib qancha tunlarni,
Men o‘zimga to‘zim tilab yashayman.
She'riyat, seningsiz qanday yashayman.

Gohida ko‘nglim shod, gohida mungli,
Armonim – so‘z aytish xalqimga shonli.
Bir senga tilayman eng oliv parvoz,
Parvozingga qanot bo‘lib yashayman.
She'riyat, seningsiz qanday yashayman.

Shoir bo‘lish asli oson ish emas,
Oqshom ko‘rib tongda unutar tushmas,
Qing‘ir xatolikni aslo kechirmas,
To‘g‘ri bo‘lib, doim halol yashayman.
She'riyat, seningsiz qanday yashayman.

Ko‘ksimda to‘lqindir yurak so‘zlarim,
Yaxshi ishga hamroh doim ko‘zlarim,
Bu yo‘llarda o‘chib ketmas izlarim,
Qog‘oz-qalam bilan sirdosh yashayman,
She'riyat, seningsiz qanday yashayman.

TO'RTLIKLAR

Baxt degani bilsang oyoq ostida,
Yo‘ldoshi u keksaningda, yoshningda.
O‘zimizga bog‘liq asli hammasi,
Ortiqcha bo‘b qolishida boshningda.

* * *

So‘zsiz hayot bo‘lmas, tuzsiz osh bo‘lmas,
Hamma keksayadi, har dam yosh bo‘lmas,
Dunyo paymonasi to‘lmanagan hargiz,
Shunday qolaverar, mudom oz bo‘lmas.

* * *

Yovuzlikka, nohaqlikka xos odam,
Necha yillar yashasa-da yosh odam.
Hech kimsaga yo‘ldosh qilmasin mudom.
Beshikdan to qabrgacha tosh odam.



KIPRIKLARING

Kipriklaring buncha uzun,
Azoblaring shuncha uzun.
Telbalarday seni har kun
Izlayman, izlayman.

O‘tganlardan o‘tdim bir-bir
Armonlarim ko‘nglimdadir.
Ey yaratgan, bu qanday sir,
Bilmayman, bilmayman.

Shivirlayman gohi unsiz
Bilmadim men kim o‘zingsiz.
Uzoq tunlar yolg‘iz, unsiz
Yig‘layman, yig‘layman.

Ey yaratgan, bergen to‘zim,
Bo‘g‘zimni kuydirar so‘zim,
Dardlarimni yolg‘iz o‘zim,
Anglayman, anglayman.

Bilmas edim suyganlarni,
Qoyil qolib yurganlarni,
Do‘sstar bu kun kuyganlarni
Aytmayman, aytmayman.

QIZLAR

Go‘zallik bor ekan, demak olamda
Biz uni so‘z qilsak qog‘oz-qalamda.
Shukrona aylarman haqqa har damda,
Hayoning timsoli sizlarsiz qizlar.

Muhabbat taxtida odil bir xonsiz,
Shu ishq nurlarini taratgan tongsiz.
Sizlar davron suring qayg‘usiz, g‘amsiz,
Osmon-u zaminning tirkagi qizlar.

Yaxshi so‘z axtarar shoir yuragim,
Ta‘rifing keltirmoq yolg‘iz tilagim.
Sizlarsiz dunyoga bormi keragim,
Tomirda qonimsiz, jonimsiz qizlar.

Qiynasa-da qishning qorli ayozi,
Sizlarga yarashmas so‘zning sayozi,
Tugamagay Rivoj O‘tar bayozi,
Husni jamolingiz she'r etib qizlar.



MUSTAQILLIK

Nurli hayot, nurli zamon,
Ko'rib bugun shodlanaman.
Xalqim oydin yo'l tanlagan,
Mustaqillik, Mustaqillik.

Maman biyday botir bobom,
Guloyimday go'zal onam,
Xalqim orzu etgan mudom,
Mustaqillik, Mustaqillik.

Xalqimning baxti, iqboli,
Tonglari oltin qaboli,
Baxtli hayotning xumoyi,
Mustaqillik, Mustaqillik.

Shoir bo'lgan xalqin kuylar,
Donishmandlar xalqin tinglar,
Oldindadir buyuk kunlar,
Mustaqillik, Mustaqillik.

KIM BOR

Ayni o‘n sakkizga to‘lganda yoshi,
Suluv qiz ko‘rinsa aylanib boshi,
Yangalari bo‘lib yaqin sirdoshi,
Oshiqlik otiga minmagan kim bor?

Go‘zallik timsoli bahor faslinda,
Barchani kutgani bor deb aslinda,
Sevar yorin kutib tolning ostinda,
Muhabbat bog‘larin kezmagan kim bor?

Nozlilar boshidir Layli, Shohsanam,
Kulgusidan jilva qiladi olam.
Qo‘llariga tutib qog‘oz va qalam,
Muhabbat qo‘shig‘in yozmagan kim bor?

Qizlarning jilvali nozli yurishi,
Yuraklarni o‘rtab sirli kulishi,
Yomon dard ekan deb muhabbat ishi,
Ishqining dog‘ida yonmagan kim bor?



ONA TILIM

Haq ko‘ngil mard xalqimning,
Mardligiga qoyilman.
Har bir ishda to‘g‘ri so‘z
Haqligiga qoyilman.

Hech bir vaqt o‘zligiga,
Hech kimga jabr etmagan.
Talashmagan toj-u taxt,
Hech kim ta'ma etmagan.

Necha asr jabr-u zulm,
O‘tkazsa-da boshidan.
O‘zi bilan qalpog‘ini
Ketkizmagan qoshidan.



O‘ZBEKISTONIM

Ozodlik tongining oltin shu'lasin,
Nurlarin elimga sochib tur bugun.
Mustaqillik – shoirlarning so‘zboshi,
Ko‘ngillarga ilhom bag‘ishlar bugun.

Tanlading tinchlik va ozodlik yo‘lin
Erkin el bo‘lib qol xalqim - jahonim.
Oydin kelajakka qadaming shaxdam,
Gullayver, ona yurt – O‘zbekistonim.

Do‘stga quchoq ochgan, do‘stga kon makon,
Mehnatda zabardast mardlarga makon,
Erkinlikni sevgan ozodlikka kon,
Quyoshli yurt, mening O‘zbekistonim.





OSHIQLIK

Majnuntolga suyanadi,
Oshiq ko'ngil yozar bo'lsa,
Muhabbatga tayanadi,
Shoir she'rin yozar bo'lsa.

Ko'tarmaydi, egilgan bosh,
Yig'layverar ozorida.
Bo'lmanan hech tarozi-tosh
Muhabbatning bozorida.

Yigit qalbin qiz anglamas,
Anglasa-da, chin anglamas,
Ishqi yonar barmog'ida
Dardi yo'qlar dard tanlamas.

To'rt tomonga chopar oshiq,
Bilmas kimning firog'ida.
Kuyar yurak, ora ochiq,
Ado bo'lar qiynog'ida.

XO‘JAYLI

She'r tarala boshlar go‘zal so‘zimdan,
Sabr va matonat olib to‘zimdan,
Bu fursat o‘zimni izlab o‘zimdan,
Sen uchun so‘z aytay bugun Xo‘jayli.

Dehqonning mehnati boylikning koni,
Bilimli yigit-qiz elim osmoni,
El deb xizmat qilar anglasang bari,
Barokat ketmagan elsan, Xo‘jayli.

Tarix sahnasida bo‘lakcha o‘rning,
Yoqasida katta ipak yo‘lining,
Dehqon artar terin, qadoq qo‘lining
Qadrini anglagan elsan, Xo‘jayli.

Ko‘kda quyosh yuzin suygan yering bor,
Tabiat mo‘l boylik uygan yering bor,
Hunar xazinasin bilgan eling bor,
Tarixda tabarruk elsan, Xo‘jayli.



BOSH EGMAY BO'LARMI AYOL ZOTIGA

Ayol tabiatning qonida oqar,
Iymanib ko'zlarning ostidan boqar.
Ne-ne azamatlar yuragin yoqar,
Bosh egmay bo'larmi ayol zotiga.

Suysa chin yurakdan suygani uchun,
Dilda shirin orzu tuygani uchun,
Kuysa sezdirmasdan kuygani uchun,
Bosh egmay bo'larmi ayol zotiga.

O'XSHAR

Nozik barmoqlarda sir borga o'xshar,
Dilida yozilmas she'r borga o'xshar,
Xayollar qanoti ko'kni ko'zlagan,
Shu pari tog'larda shunqorga o'xshar.

Qalam qoshi, kiprik ko'zima deyin,
Qadrli eng achchiq so'zima deyin,
Biz oshiqa, yetgancha o'zima deyin,
Poygaga oshiqqan tulporga o'xshar.

OBOD KO‘NGILLARDAN BOSHLANAR VATAN

Nohaqlikning ko‘chalarin kezmagan,
Yomonlikning ne ekanin sezmagan,
Go‘zal noma, shirin so‘zdan so‘zlagan,
Obod ko‘ngillardan boshlanar Vatan.

Tulporlar poygada chopishgan yerdan,
Mardlik yovqur bo‘lib olishgan yerdan,
Haqiqat qonlarga qorishgan yerdan,
Obod ko‘ngillardan boshlanar Vatan.

Shoir so‘zidagi quralgan joydan,
Shodlik quvonchlarga ulangan joydan,
Mehr g‘unchalari suv sochgan joydan,
Obod ko‘ngillardan boshlanar Vatan.





BU TUPROQ MUQADDAS, BU TUPROQ AZIZ

Qo‘lga olsam kaftlarimda oltin kabi,
Bizni asli bog‘lab turgan taqdir ipi.
Otam kabi, quchog‘imda bolam kabi,
Bu tuproq muqaddas, bu tuproq aziz.

Qancha bobolarning yuzini ko‘rgan,
Mardi maydonlarning izini ko‘rgan,
Tabiatning bahor, kuzini ko‘rgan,
Bu tuproq muqaddas, bu tuproq aziz.

DAVRON SENIKI

*"Tashabbus-2012" tanlovi
qatnashchilariga*

El gerdaysa yigit ishi bilinar,
Elga yigit ishi bilan ko‘rinar,
Hormang, ishbilarmon og‘a-inilar,
Bu baxtli zamonda, davron seniki.

Kez dunyoni hunaring bor qo‘lingda,
Niyating pok, to‘sqinlik yo‘q yo‘lingda,
Vatan, xalq qo‘llaydi o‘ng-u so‘lingda,
Qo‘li gul hunarmand, karvon seniki.

SOG‘INISH KUYI

Muhabbat bog‘larin kezganda birga,
Ishqning dog‘larini sezganda birga,
Bahor qizg‘aldog‘in terganda birga,
Meni behush etgan lablaring boli.

Bugun yana yo‘llarimiz tutashgan,
Bugun yana qo‘llarimiz tutashgan,
Jon ichida tomirimga tutashgan,
Ko‘nglimni bog‘lagan soching tolsi.

Umidga talpinish hayot chiroyi,
O‘zingsiz o‘tadi har kun, har oyи,
Sog‘inish kuyini chertganda sozi,
Ming muqom qiladi yurakning tori.



MUNDARIJA

<i>Men sening ishqingda kuysam ne bo'pti.....</i>	5
<i>Muhabbat</i>	6
<i>Sog'inish.....</i>	7
<i>Shu bir qiz.....</i>	8
<i>Yodimdasan</i>	9
<i>Ota makon</i>	10
<i>Ona Vatan</i>	11
<i>Yigirma besh yosh</i>	12
<i>Tilak</i>	13
<i>Oppoq qor</i>	14
<i>Yaxshilikdan yaralgan dunyo</i>	15
<i>Dog'lar ketmadi</i>	16
<i>Elimda yigitday yurgim keladi</i>	17
<i>Qoraqalpoqda.....</i>	18
<i>Ko'nglim</i>	19
<i>Onalar.....</i>	20
<i>Shukrona</i>	21
<i>Mening konstitutsiyam</i>	22
<i>Yo'qchilik</i>	23
<i>Ko'ngil tovlanishlari</i>	24
<i>El deb urar yuraging bo'lsin</i>	25

<i>Yoshlarga tilak</i>	26
<i>Shoir do'stimga</i>	27
<i>Shamollar</i>	28
<i>O'ylarga toldim</i>	29
<i>Xalqim</i>	30
<i>Navro'z</i>	31
<i>She'riyat, sensiz qanday yashayman</i>	32
<i>To'rtliklar</i>	33
<i>Kipriklaring</i>	34
<i>Qizlar</i>	35
<i>Mustaqillik</i>	36
<i>Kim bor</i>	37
<i>Ona tilim</i>	38
<i>O'zbekistonim</i>	39
<i>Oshiqlik</i>	40
<i>Xo'jayli</i>	41
<i>Bosh egmay bo'larmi ayol zotiga</i>	42
<i>O'xshar</i>	42
<i>Obod ko'ngillardan boshlanar Vatan</i>	43
<i>Bu tuproq muqaddas, bu tuproq aziz</i>	44
<i>Davron seniki</i>	44
<i>Sog'inish kuyi</i>	45

RIVOJ O'TARBOYEV

JAYHUN JILVALARI
she'rlar

Muharrir: Humoyun Akbarov

Rassom: Rashidbek Akromiddinov

Badiiy muharrir: Akbarali Mamasoliyev

Musahhih: Go'zal Matyoqubova

Sahifalovchi: Oygul Fazilova

Nashriyot litsenziyasi №. 181. 08.12.11.

*Terishga 16.08.2011 da berildi. Bosishga ruxsat 20.09.2012 da
berildi. Bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$. Ofset usulida bosildi.
«Academ» garniturasi. Shartli b.t. ,8. Nashr-hisob t. 1,3.
Adadi 20.000 nusxa. Buyurtma №*

«ADIB» nashriyotida tayyorlandi.

100027. Toshkent. O'zbekiston ko'chasi, 16-uy.

Tel: (8371) 245-89-24.

*O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida bosildi.*

100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

*Muqovani bezatishda respublika rassomlik kolleji
talabalarining ijodiy ishlaridan foydalanildi.*